

Ilm o'chog'iga chorlovchi maskan

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Qarshi filiali huzuridagi akademik litseyi va Buxoro davlat universiteti Qorako'l akademik litseyi o'rtaida shartnoma tuzildi.

TIQXMMI Qarshi filiali huzuridagi akademik litseyi direktori Toshmurodov Yo.Q. va akademik litseyi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribosari Toshev J. Buxoro davlat universiteti Qorako'l akademik litseyiga tashrif buyurib, akademik litseydagi erishilgan natijalar va yutuqlar, yo'lga qo'yilgan ishlar, undagi tashkil etilgan ta'lim tizimi bilan chuqurroq tanishishdi, qolaversa, akademik litseyda iqtidorli va bilimli o'quvchilarni saralash to'g'risida suhbatlashildi.

Ushbu yutuqlar bilan Qorako'l akademik litseyi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribosari Bozorov N. chuqur hurmat va ehtirom bilan tanishtirib o'tdi. Keyingi davrda ikki akademik litsey hamkorlikda ishlarni olib borishi kelishib olindi. Bunda o'quvchilarning bir-biri bilan o'zaro bilim almashishi va malakali o'qituvchilar esa birgalikda fan olimpiyadalarini g'oliblarini tayyorlashda hamkorlik qilishga kelishib olindi.



Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov